

# TERMIZ SHAHRIDA MO'TABAR AYOLLAR, MUNIS OPA-SINGILLAR SHARAFLANDI



## TERMIZ SHAHRIDA MO'TABAR AYOLLAR, MUNIS OPA-SINGILLAR SHARAFLANDI

Bugun, 6-mart kuni Termiz shahridagi "Afruz" tantanalar saroyida 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda shahrimizda ko'p yillar va samarali mehnat qilib kelayotgan fidoyi xotin-qizlar vakillari ishtirok etdi. Bayram tadbirida yig'ilganlarni Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev qizg'in muborakbod etib, ezgu tilaklarni bildirdi.

Bayram tadbiri davomida bir guruh xotin-qizlarga Termiz shahar hokimligining faxriy yorlig'i va esdalik sovg'alari tantanali tarzda topshirildi. Bayram san'atkorlar ijrosidagi badiiy dasturga ulanib, ishtirokchilarga xush kayfiyat ulashdi.

-Hech yurt ayollariga O'zbekistondagi kabi davlat darajasida bunday yuksak e'tibor,

g'amxo'rlik ko'rsatilmasa kerak. Nafaqada bo'lsam, har safar bayramlarga taklif  
e'lashadi. Bundan boshim ko'kka yetadi. Dilim yashnab, to'lganib ketaman. Bugungi  
bayramga taklif etilganimdan behad mamnun bo'ldim! dedi Termizlik mehnat  
fakriysi Nobiya Tulyakova.




Image not found or type unknown










































Image not found or type unknown

